Xususiyl tijorat banklarining moliyaviyl resurslarini mustahkamlash masalasi zamonaviyl bank nazariyasi, moliyaviyl barqarorlik konsepsiyasi hamda kapital tuzilmasi yondashuvlari doirasida keng o'rganilgan. Mazkur masala nafaqat bankning ichki moliyaviyl siyosati, balki butun moliya tizimining barqarorligi, real sektorni kreditlash imkoniyatlari hamda makroiqtisodiy muvozanat bilan uzviyl bog'liqdir. Ayniqsa, global moliyaviyl inqirozlardan keyingi davrda bank resurs bazasining sifat tarkibi, kapital yetarliligi va likvidlik darajasi moliyaviyl tizimning chidamliligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu yo'nalishda tadqiqotlar, asosan, uch asosiy blokka ajratiladi: (1) bank kapitali va moliyaviyl barqarorlik, (2) depozitlar va moliyalashtirish tuzilmasi, (3) kapital bozori instrumentlari hamda risklarni boshqarish mexanizmlari. Har bir blok xususiyl tijorat banklarining moliyaviyl resurslarini mustahkamlashning muhim tarkibiy elementini ifodalaydi.

Bank kapitalining iqtisodiy o'sish va moliyaviyl barqarorlikdagi roli ilk bor moliyaviyl vositachilik nazariyasi doirasida tizimlashtirilgan. Ushbu nazariyaga ko'ra, banklar jamg'armalarni investitsiyalarga yo'naltirish orqali resurslarni samarali taqsimlaydi va shu orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Levine moliya tizimi rivojlanishi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi uzviyl bog'liqlikni empirik asosda isbotlab, bank kapitalining samarali taqsimlanishi investitsion faollikni rag'batlantirishini hamda texnologik yangilanish jarayonlarini tezlashtirishini ko'rsatadi [1]. Uning yondashuvi moliyaviyl chuqurlik (financial depth) va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi ijobiy korelyatsiyani asoslaydi.

Allen va Gale moliyaviyl tizim barqarorligida kapitalning bufer funksiyasini konseptual jihatdan ishlab chiqib, bank kapitali shoklarni yutish mexanizmi sifatida amal qilishini ta'kidlaydi [2]. Ularning fikricha, kapital yetarliligi nafaqat alohida bankni, balki butun bank tizimini tizimli xatarlar tarqalishidan himoya qiladi. Demirgüç-Kunt va Huizinga esa keng xalqaro ma'lumotlar bazasi asosida bank kapitali darajasi va daromadlilik ko'rsatkichlari o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni aniqlagan [3]. Ushbu natijalar kapitalning nafaqat himoya vositasi, balki bank faoliyatining samaradorligini qo'llab-quvvatlovchi muhim omil ekanini ham ko'rsatadi.

Basel III standartlari kapital yetarliligini kuchaytirish orqali bank sektorida tizimli risklarni kamaytirishga qaratilgan bo'lib, ular kapitalning sifat tarkibini (Tier 1, CET1) oshirish, leverage koeffitsientini joriyl etish hamda kontrsiklik buferlarni shakllantirishni nazarda tutadi [4]. Ayniqsa, kontrsiklik kapital buferi iqtisodiy sikl davomida kreditlashning haddan tashqari kengayishini muvozanatlashtirish va inqiroz davrida yo'qotishlarni qoplash imkonini beradi. Shunday qilib, kapital bazasini mustahkamlash xususiyl banklar barqarorligining muhim determinantiga aylanadi hamda ularning risklarga chidamliligini oshirishga xizmat qiladi.

Bank resurslarining tarkibi va muddat tuzilmasi moliyaviyl barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Aktivlar va passivlarning muddat mosligi (maturity matching) bank likvidligi va barqarorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Diamond va Dybvig modeli bank likvidligi hamda depozitlar barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlikni izohlab, bank yugurishi (bank run) fenomenini nazariyl jihatdan asoslab beradi [5]. Ushbu modelga ko'ra, depozitlarning qisqa muddatli va talab qilib olinguncha shaklda bo'lishi likvidlik riskini kuchaytirishi mumkin, chunki omonatchilar o'z mablag'larini bir vaqtning o'zida qaytarib olishga intiladi.

Huang va Ratnovskiy banklarning ulgurji (wholesale) moliyalashtirishga haddan tashqari tayanishi likvidlik



risklarini kuchaytirishi va inqiroz davrida moliyaviy beqarorlikni oshirishi mumkinligini empirik jihatdan asoslab beradi [6]. Ularning xulosasiga ko'ra, chakana depozitlar ulushi yuqori bo'lgan banklar nisbatan barqarorroq faoliyat yuritadi. Berger va Bouwman esa kapital darajasi yuqori bo'lgan banklar moliyaviy inqiroz davrida kreditlash faoliyatini nisbatan barqaror saqlab qolganini ko'rsatadi [7]. Bu holat kapital va moliyalashtirish tuzilmasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi.

Song va Thakor bank kapital tuzilmasining optimal modeli doirasida depozitlar va bozor moliyalashtirishining muvozanatli nisbatini taklif qiladi [8]. Ularning modeliga ko'ra, banklar kapital va qarz instrumentlari o'rtasida optimal nisbatni tanlash orqali risk va rentabellik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv xususiy banklar uchun resurs bazasini diversifikatsiya qilish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi hamda uzoq muddatli barqaror moliyalashtirish manbalarini kengaytirishning dolzarbligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda banklar tomonidan obligatsiyalar, subordinatsiyalangan qarz hamda boshqa bozor instrumentlaridan foydalanish moliyaviy resurslarni mustahkamlashning muhim yo'nalishiga aylandi. Adrian va Shin bank balans tuzilmasining protsiklik xususiyatini o'rganib, bozor moliyalashtirishining kredit sikllarini kuchaytirish yoki yumshatishdagi rolini tahlil qilgan [9]. Ularning fikricha, kapital bozoriga chiqish banklarga likvidlikni diversifikatsiya qilish va balans tuzilmasini optimallashtirish imkonini beradi.

DeAngelo va Stulz bank kapitalining iqtisodiy mohiyatini qayta ko'rib chiqib, kapital bozori instrumentlari orqali risklarni qayta taqsimlash hamda investorlar ishonchini oshirish imkoniyatlarini asoslab bergan [10]. Ular bank kapitalining yuqori darajasi moliyalashtirish xarajatlarini kamaytirishi va kredit reytingini yaxshilashini ko'rsatadi. So'nggi yillarda ESG obligatsiyalari va yashil moliyalashtirish instrumentlari bank resurs bazasini uzoq muddatli, barqaror va nisbatan arzon manbalar bilan boyitish imkonini bermoqda [11]. Bu holat xususiy banklar uchun kapital bozori orqali diversifikatsiyalangan resurslarni jalb etishning yangi strategik yo'nalishini anglatadi.

Aktivlar va passivlarni boshqarish (ALM) tizimi bank resurslarini mustahkamlashning institutsional asosi hisoblanadi. ALM yondashuvi bank balansidagi risklarni, jumladan, likvidlik riski, foiz stavkasi riski va valyuta riskini kompleks boshqarishni nazarda tutadi. Freixas va Rochet bank risklarini mikroiqtisodiy model asosida tahlil qilib, kapital va likvidlik o'rtasidagi optimal nisbat bankning uzoq muddatli barqarorligini belgilashini ko'rsatgan [12]. Ularning modeli bank resurslarini boshqarishda strategik qarorlarning ahamiyatini ochib beradi.

Brunnermeier va Oehmke moliyaviy tizimda likvidlik spirali va kapital yetishmovchiligi o'rtasidagi bog'liqlikni asoslab bergan [13]. Ularning yondashuviga ko'ra, moliyaviy shoklar sharoitida kapital yetishmovchiligi likvidlik tanqisligini kuchaytiradi va tizimli inqiroz xavfini oshiradi. Bu holat xususiy banklarda stress-test, ssenariy tahlili va likvidlik monitoringi tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ALM mexanizmi bank moliyaviy resurslarini mustahkamlashning muhim strategik boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi empirik tadqiqotlar bank kapitali va kreditlash hajmi o'rtasida barqaror hamda statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Mazkur bog'liqlik, ayniqsa, prudensial talablar kuchaytirilgan sharoitda yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Gambacorta va Shin kapital talablari kuchaytirilishi bank kredit siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqlab, kapital darajasi yuqori bo'lgan banklar kreditlashni qisqartirish o'rniga uni barqaror davom ettirish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatadi [14]. Ularning tadqiqotlari kapital buferining banklar uchun shoklarni yumshatuvchi mexanizm sifatida xizmat qilishini hamda monetar siyosat impulsining real sektorga uzatilish kanallarini barqarorlashtirishini asoslaydi.

Bundan tashqari, kapital talablari kuchaytirilishi banklarning riskka bo'lgan munosabatini yanada ehtiyotkor va muvozanatli yo'nalishga o'zgartiradi. Yetarli kapitalga ega banklar yuqori sifatli aktivlarga ko'proq e'tibor qaratadi, kredit portfelining diversifikatsiyasini kengaytiradi hamda riskka asoslangan narxlash mexanizmlarini joriy etadi. Natijada kreditlash hajmining barqarorligi bilan bir qatorda uning sifati ham oshadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida kapital yetarliligi banklarning kredit sikllariga haddan tashqari sezgiriligini kamaytiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Brei va Gambacorta global moliyaviy inqirozdan keyingi davrni tahlil qilib, yuqori kapitalga ega banklar inqirozdan so'ng tezroq tiklanganini hamda kreditlash faoliyatini qisqa muddat ichida qayta faollashtirganini ko'rsatadi [15]. Ularning natijalari kapitalning kontrsiklik funksiyasini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Ya'ni, yetarli kapital buferiga ega banklar iqtisodiy pasayish davrida aktivlarini keskin qisqartirmaydi va kreditlashni davom ettirish orqali iqtisodiy tiklanishga munosib hissa qo'shadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot xususiy tijorat banklarining moliyaviy resurslarini mustahkamlash omillarini aniqlashga qaratilib, unda aralash metodlar yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot doirasida nazariy-analitik tahlil orqali bank kapitali, moliyalashtirish tuzilmasi, likvidlik va ALM tizimining moliyaviy barqarorlikdagi o'zni o'rganildi, institutsional-taqqoslama tahlil yordamida rivojlangan mamlakatlar tajribasi umumlashtirildi hamda empirik-



statistik usullar asosida 2025-yil 1-yanvar holatiga banklarning aktivlari, kreditlari, kapitali va depozitlari bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi. Natijalarni umumlashtirishda tavsifiy statistika, tarkibiy tahlil, taqqoslash va mantiqiy sintez usullaridan foydalanilib, resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha amaliy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xususiylar tijorat banklarining moliyaviy resurslarini mustahkamlash masalasi bankning mikro darajadagi barqarorligi bilan bir qatorda, kreditlashning uzluksizligi, moliyaviy vositachilik samaradorligi hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etadi. Raqobat muhitining keskinlashuvi, prudensial me'yorlarning (kapital va likvidlik standartlari) qat'iylashuvi, shuningdek, risklarning murakkablashuvi sharoitida resurs bazasini "hajm" bo'yicha emas, balki sifat, barqarorlik, muddat muvofiqligi va diversifikatsiya mezonlari asosida boshqarish zarurati ortib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bank resurslarini mustahkamlash bo'yicha samarali yondashuv alohida instrumentlar majmuasiga emas, balki kapital sifati, barqaror moliyalashtirish, bozor instrumentlari hamda ALM va risk-boshqaruvning o'zaro integratsiyasidan iborat "institutsonal paket"ga tayanadi.

Rivojlangan moliya tizimlarida bank resurslari barqarorligini ta'minlashning markaziy yo'nalishi sifatli kapital (CET1/Tier 1) ulushini oshirish hamda iqtisodiy sikllarga mos ravishda kapital buferlarini shakllantirishdan iborat. Kapitalning bufer funksiyasi bankning kutilmagan yo'qotishlarni qoplash qobiliyatini kuchaytiradi, shuningdek, bozor ishonchini oshirish orqali moliyalashtirish narxini pasaytirishga xizmat qiladi. Xususiylar banklar kontekstida bu jarayon foydani kapitalizatsiya qilish, qo'shimcha emissiyalar, strategik investorlarni jalb etish hamda subordinatsiyalangan moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Empirik dalillar kapital yetarliligi yuqori bo'lgan banklar shok davrlarida kreditlashni nisbatan barqaror saqlashini va aktivlar sifati bo'yicha yuzaga keladigan yo'qotishlarni samaraliroq qoplashini ko'rsatadi. Shu sababli, xususiylar banklar uchun kapital bazasini mustahkamlash resurs siyosatining tayanch determinanti sifatida talqin etiladi.

Moliyalashtirish tuzilmasining sifat ko'rsatkichlari bank resurs bazasining chidamliligini belgilaydi. Rivojlangan mamlakatlarda barqaror resurslar, asosan, granulyatsiyalangan chakana depozitlar (ko'p sonli kichik omonatchilar) va barqaror muddatli manbalar hisobiga shakllantiriladi. Bunda depozitlar bo'yicha raqobat faqat foiz stavkalari orqali emas, balki mahsulot dizayni, raqamli kanallar, ishonch instituti va xizmat sifati orqali ham olib boriladi. Depozitlarning muddat tuzilmasini uzaytirish, valyutalar va segmentlar bo'yicha diversifikatsiyani kuchaytirish hamda yirik omonatchilarga qaramlikni kamaytirish likvidlik riskini pasaytirishga xizmat qiladi. Ulgurji (wholesale) moliyalashtirish esa to'liq rad etilmaydi, balki ALM chegaralari va limitlar tizimi doirasida maqbul ulushda saqlanadi. Natijada resurslarning "barqarorlik koeffitsienti" oshadi va bank kredit portfeli siklik tebranishlarga nisbatan kamroq sezgir bo'ladi.

Rivojlangan iqtisodiyotlarda banklar resurs bazasini mustahkamlashda kapital bozorining imkoniyatlaridan faol foydalanadi. Jumladan, bank obligatsiyalari, qoplangan obligatsiyalar (covered bonds), sek'yuritizatsiya, subordinatsiyalangan qarz hamda turli "eligible liabilities" instrumentlari bank passivlarini muddat jihatidan "cho'zish"ga xizmat qiladi. Ushbu instrumentlar bankka aktivlar va passivlar mosligini yaxshilash, resurs narxini segmentlashtirish, investor bazasini kengaytirish (pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va boshqa institutsional investorlar) hamda likvidlik riskini optimallashtirish imkonini beradi. So'nggi yillarda ESG va yashil instrumentlar banklar uchun qo'shimcha reputatsion hamda institutsional ustunlik yaratib, ayrim bozorlarda moliyalashtirish narxini pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, bozor instrumentlarining samaradorligi bevosita kapital sifati va risk-boshqaruvning institutsional yetukligiga bog'liq bo'lib, investorlar talab qiladigan risk mukofoti (risk premium) ALM va prudensial intizom darajasi bilan belgilanadi.

Resurslarni diversifikatsiya qilish va kapitalni mustahkamlash real natijaga aylanishi uchun bankda kuchli ALM (aktivlar va passivlarni boshqarish) hamda risk-boshqaruv infratuzilmasi mavjud bo'lishi muhimdir. Rivojlangan amaliyotda ALCO orqali foiz riski (NII/EVE yondashuvi), likvidlik riski (LCR/NSFR, stress-testlar), valyuta risklari (GAP, limitlar), ichki transfer narxlash (FTP) hamda erta ogohlantirish indiktorlari (EWI) yagona boshqaruv konturiga birlashtiriladi. Natijada resurs bazasi bankning strategik maqsadlariga mos ravishda dinamik tarzda boshqariladi: qaysi segment resurslari shoklar sharoitida tezroq chiqib ketishi mumkinligi, moliyalashtirish narxi iqtisodiy sikl davomida qanday o'zgarishi hamda qaysi instrumentlar bufer rolini bajarishi oldindan modellashtiriladi. Demak, resurs siyosati bankning daromadlilik ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, uning barqarorligi va chidamliligini ta'minlashga ham bevosita xizmat qiladi (1-jadval).



1-jadval. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida resurs bazasini mustahkamlashning institutsional mexanizmlari¹

Hudud	Institutsional mexanizm	Xususiy banklar uchun amaliy natija
Yevropa Ittifoqi	Qoplangan obligatsiyalar, MREL talablariga mos "eligible liabilities"ni kengaytirish	Uzoq muddatli passivlar ulushi ortadi; muddat nomutanosibligi kamayadi
AQSh	Stress-testlar (CCAR/DFAST) asosida kapitalni rejalashtirish va "retail franchise"ga tayanish	Kapital intizomi kuchayadi; inqiroz sharoitida kreditlash barqarorroq saqlanadi
Kanada / Buyuk Britaniya	LCR/NSFR standartlarini qat'iy qo'llash, likvidlik limitlari va shaffof monitoring	Likvidlik shoklariga chidamlilik oshadi; ulgurji moliyalashtirishga qaramlik pasayadi

1-jadval natijalari rivojlangan bozorlar tajribasida resurs mustahkamligi, asosan, alohida "instrument"lar orqali emas, balki institutsional boshqaruv va prudensial intizom orqali ta'minlanishini ko'rsatadi. Kapitalni rejalashtirish (stress-testlar), barqaror moliyalashtirish standartlari hamda bozor instrumentlaridan kompleks foydalanish bankning shoklarga nisbatan chidamliligini oshiradi va kreditlashning keskin qisqarish ehtimolini kamaytiradi (2-jadval).

2-jadval. Xususiy banklar uchun resurslarni mustahkamlash strategiyalari va kutiladigan natijalar profili²

Strategik yo'nalish	Asosiy instrumentlar	Kutiladigan natija
Kapitalni mustahkamlash	CET1 ulushini oshirish, foydani kapitalizatsiya qilish, subordinatsiyalangan instrumentlar	Riskka chidamlilik va kredit reytingi oshadi; resurs narxi pasayadi
Moliyalashtirishni diversifikatsiya qilish	Chakana depozitlar, raqamli omonatlar, riskka asoslangan narxlash	Depozit bazasi barqarorlashadi; likvidlik riski kamayadi
Uzoq muddatli bozor moliyalashtirish	Bank obligatsiyalari, covered bonds, ESG/ yashil instrumentlar, sek'yuritizatsiya	Passivlar muddat jihatidan "cho'ziladi"; ALM muvozanati yaxshilanadi

Jadvaldan ko'rinadiki, resurs bazasini mustahkamlashda kapital sifati – depozitlar barqarorligi – bozor instrumentlari o'zaro to'ldiruvchi omillar hisoblanadi. Bozor instrumentlari passivlarni muddat jihatidan uzaytirsada, ularning narxi va samaradorligi kapital yetarliligi hamda risk-boshqaruv tizimining yetukligi bilan bevosita belgilanadi; shu sababli strategiyalar izchil va integratsiyalashgan tarzda joriy etilishi talab etiladi (3-jadval).

3-jadval. 2025-yil 1-yanvar holatiga xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, mlrd. so'mda³

№	Bank nomi	Aktiv		Kredit		Kapital		Depozit	
		Summa	Ulushi, %	Summa	Ulushi, %	Summa	Ulushi, %	Summa	Ulushi, %
1	Ipoteka-bank	52 069	7%	35 094	7%	7 337	6%	25 692	8%
2	Kapital bank	47 365	6%	31 584	6%	5 225	5%	36 664	12%
3	Hamkorbank	28 708	4%	19 178	4%	5 161	4%	11 634	4%
4	Ipak yo'li bank	23 150	3%	14 228	3%	3 588	3%	11 810	4%
5	Orient Finance bank	16 878	2%	12 565	2%	3 073	3%	11 099	4%
6	Invest Finance bank	12 062	2%	7 929	1%	1 415	1%	8 905	3%
7	Trast bank	10 868	1%	5 705	1%	2 920	3%	7 421	2%
8	KDB bank O'zbekiston	10 134	1%	3 367	1%	1 838	2%	5 306	2%
9	Anor bank	10 108	1%	6 858	1%	1 022	1%	8 743	3%
10	Tibisi bank	9 737	1%	7 468	1%	2 503	2%	4 901	2%
11	Davr bank	9 361	1%	7 019	1%	1 398	1%	3 700	1%
12	Asia Alliance bank	8 061	1%	4 217	1%	1 303	1%	3 161	1%
13	Tenge bank	7 527	1%	3 865	1%	1 164	1%	5 669	2%
14	Ziraat Bank Uzbekistan	4 530	1%	2 028	0%	672	1%	2 133	1%

1 Manba: muallif ishlanmasi.

2 Manba: muallif ishlanmasi.

3 Manba: muallif ishlanmasi.



15	Oktobank	3 368	0%	1 675	0%	606	1%	2 384	1%
16	Universal bank	3 163	0%	190	0%	755	1%	1 893	1%
17	Garant bank	1 942	0%	797	0%	547	0%	973	0%
18	Hayot bank	1 663	0%	1 161	0%	460	0%	1 159	0%
19	Uzum bank	1 072	0%	131	0%	651	1%	75	0%
20	Apeks bank	939	0%	213	0%	406	0%	303	0%
21	Madad invest bank	674	0%	307	0%	517	0%	52	0%
22	Eron Soderot bankining ShB	639	0%	68	0%	506	0%	42	0%
23	AVO bank	569	0%	283	0%	548	0%	17	0%
24	Smart bank	557	0%	21	0%	501	0%	47	0%
25	Poytaxt bank	460	0%	302	0%	175	0%	194	0%
26	Yangi bank	377	0%	138	0%	166	0%	202	0%
27	Yevroosiyo banki	162	0%	0	0%	161	0%	0	0%

3-jadval ma'lumotlari 2025-yil 1-yanvar holatiga xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi tijorat banklari faoliyatining tarkibiy tuzilmasini aks ettiradi. Tahlil natijalariga ko'ra, aktivlar va kredit portfeli bo'yicha yetakchi pozitsiyalar, asosan, Ipoteka-bank, Kapital bank va Hamkorbank hissasiga to'g'ri keladi. Xususan, Ipoteka-bank umumiy aktivlarning 7 foizini hamda kredit portfelining 7 foizini shakllantirib, tizimda nisbatan yuqori ulushga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu holat bankning operatsion masshtabi va kreditlash faoliyati kengligini ko'rsatadi.

Depozitlar kesimida esa Kapital bank (12 foiz) va Ipoteka-bank (8 foiz) yetakchilik qilmoqda. Kapital bankning depozitlar bo'yicha ulushi uning aktivlar bo'yicha ulushiga nisbatan yuqoriroq bo'lishi chakana segmentda kuchli pozitsiyaga ega ekanini hamda barqaror moliyalashtirish bazasini shakllantirganini anglatadi. Bu esa bankning likvidlik riskini boshqarish imkoniyatlari nisbatan yuqori ekanini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga asoslanib, xususiy tijorat banklarining moliyaviy resurslarini mustahkamlash jarayoni tizimli, institutsional va integratsiyalashgan yondashuvni talab etishi aniqlanadi. Avvalo, kapital bazasini sifat jihatidan mustahkamlash ustuvor vazifa bo'lib, CET1 ulushini oshirish, foydani reinvestitsiya qilish, qo'shimcha emissiyalar hamda subordinatsiyalangan moliyaviy instrumentlardan foydalanish orqali kapitalning kontrastlik va bufer funksiyasini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv bankning riskka chidamliligini oshirish bilan bir qatorda, moliyalashtirish narxini optimallashtirish va investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, depozit siyosatini transformatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, chakana depozitlar granulyatsiyasini kengaytirish, muddatli omonatlar ulushini oshirish, yirik depozitlarga qaramlikni kamaytirish hamda riskka asoslangan narxlash mexanizmlarini joriy etish orqali resurs bazasining barqarorligini ta'minlash lozim. Bu jarayon likvidlik riskini pasaytirish, aktivlar va passivlar muddat muvofiqligini yaxshilash hamda kreditlashning uzluksizligini ta'minlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, kapital bozori instrumentlaridan tizimli foydalanish, jumladan, bank obligatsiyalari, covered bonds, sek'yuritizatsiya hamda ESG/yashil moliyalashtirish vositalari orqali uzoq muddatli resurslarni jalb etish xususiy banklar uchun strategik yo'nalish sifatida qaralishi lozim. Mazkur instrumentlar passivlar muddatini "cho'zish", investorlar bazasini diversifikatsiya qilish va ALM muvozanatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq ularning samaradorligi bankning shaffoflik darajasi, kredit reytingi hamda risk-boshqaruv infratuzilmasining rivojlanganligi bilan bevosita bog'liqdir.

Nihoyat, ALM va risk-boshqaruv tizimlarini chuqurlashtirish, LCR va NSFR ko'rsatkichlari monitoringini takomillashtirish, stress-test va ssenariy tahlillarni muntazam qo'llash hamda ichki transfer narxlash (FTP) mexanizmini joriy etish resurs siyosatini strategik darajada boshqarish imkonini beradi. Bu esa bank daromadliligi va barqarorligi o'rtasidagi muvozanatni saqlagan holda, moliyaviy vositachilik samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, xususiy tijorat banklarining moliyaviy resurslarini mustahkamlash masalasi alohida instrumentlar yig'indisi sifatida emas, balki kapital sifati, depozitlar barqarorligi, bozor moliyalashtirish imkoniyatlari hamda ALM va risk-boshqaruvning o'zaro uyg'unlashgan tizimi sifatida talqin etilishi lozim. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kapitalni rejalashtirish intizomi, barqaror moliyalashtirish standartlari hamda institutsional boshqaruv mexanizmlarining integratsiyasi bank sektorining shoklarga nisbatan chidamliligini oshiradi va kreditlashning keskin qisqarish xavfini kamaytiradi.



2025-yil 1-yanvar holatiga keltirilgan empirik ma'lumotlar xususi banklar o'rtasida resurslar va kreditlash salohiyatining notekis taqsimlanganini ko'rsatadi. Bu holat kapitalni mustahkamlash, depozitlar bazasini diversifikatsiya qilish hamda uzoq muddatli bozor resurslarini kengroq jalb etish zaruratini yanada dolzarblashtiradi. Shu nuqtai nazardan, xususi banklar moliyaviy resurslarini mustahkamlash strategiyasi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsion faollikni qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiy o'sishning uzluksizligini kafolatlashda muhim institutsional omil sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Levine, R. Financial Development and Economic Growth: Views and Agenda // Journal of Economic Literature. – 1997. – Vol. 35. – No. 2. – P. 688–726.
2. Allen, F., Gale, D. Comparing Financial Systems. – Cambridge, MA: MIT Press, 2000. – 507 p.
3. Demirgüç-Kunt, A., Huizinga, H. Determinants of Commercial Bank Interest Margins and Profitability // World Bank Economic Review. – 1999. – Vol. 13. – No. 2. – P. 379–408.
4. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems. – Basel: BIS, 2011. – 77 p.
5. Diamond, D., Dybvig, P. Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity // Journal of Political Economy. – 1983. – Vol. 91. – No. 3. – P. 401–419.
6. Huang, R., Ratnovskiy, L. The Dark Side of Bank Wholesale Funding // Journal of Financial Intermediation. – 2011. – Vol. 20. – No. 2. – P. 248–263.
7. Berger, A., Bouwman, C. How Does Capital Affect Bank Performance During Financial Crises? // Journal of Financial Economics. – 2013. – Vol. 109. – No. 1. – P. 146–176.
8. Song, F., Thakor, A. Financial System Architecture and the Co-Evolution of Banks and Capital Markets // Economic Journal. – 2010. – Vol. 120. – No. 547. – P. 1021–1055.
9. Adrian, T., Shin, H. Liquidity and Leverage // Journal of Financial Intermediation. – 2010. – Vol. 19. – No. 3. – P. 418–437.
10. DeAngelo, H., Stulz, R. Why High Leverage Is Optimal for Banks // Review of Financial Studies. – 2015. – Vol. 28. – No. 3. – P. 653–691.
11. Flammer, C. Green Bonds: Effectiveness and Implications for Public Policy // Environmental and Energy Policy and the Economy. – 2021. – Vol. 2. – P. 95–128.
12. Freixas, X., Rochet, J.-C. Microeconomics of Banking. – 2nd ed. – Cambridge, MA: MIT Press, 2008. – 664 p.
13. Brunnermeier, M., Oehmke, M. The Maturity Rat Race // Journal of Finance. – 2013. – Vol. 68. – No. 2. – P. 483–521.
14. Gambacorta, L., Shin, H. Why Bank Capital Matters for Monetary Policy // Journal of Financial Intermediation. – 2018. – Vol. 35. – P. 17–29.
15. Brei, M., Gambacorta, L. The Leverage Ratio over the Cycle // BIS Working Papers. – 2016. – No. 471. – 32 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>